SARIOSIYO TUMANIDAGI ZOVXONA VA KANDUKILARNING ETNIK TARKIBI

Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li
DTPI tarix yo'nalishi magistranti
e-pochta: sattorovfirdavs1621@gmail.com
Tel: +998877941621

Annotatsiya: Maqolada Surxon vohasining Sariosiyo, Uzun va Denov tumanlari misolida, asosan Sariosiyo tumanidagi tojik aholisining etnik tarkibi, etnik shakllanish tarixi va xo'jalik faoliyati etnologik jihatdan tahlil qilingan. Dala tadqiqotlari va ilmiy adabiyotlarga tayanib, tojiklarning " tog'lik" va "tekislikdagi" guruhlari, ularning urug' – qarindoshlik tuzilmasi joylashuvi hamda dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik va pillachilikdagi o'ziga xosligi yoritilgan

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, Sariosiyo, tojiklar, sug'orma dehqonchilik, Denov, urug'lar, Tirgaron, Xufar, Zamaki, etnik tarkib.

Аннотация: В статье на примере Сариасийского, Узунского и Денауского районов Сурхандарьинского оазиса, главным образом Сариасийского района, дан этнологический анализ этнического состава, истории этнического формирования и хозяйственной деятельности таджикского населения. На основе полевых исследований и научной литературы рассмотрены «горные» и «равнинные» группы таджиков, их родоплеменная структура (замаки, маланди, хуфари, зовханачи, кандукий и др.), расселение, а также специфика земледелия, садоводства, скотоводства и шелководства.

Ключевые слова: Сурхандарьинский оазис, Сариасийский район, таджики, этнический состав, роды, этнотерриториальное расселение, орошаемое земледелие, садоводство, полевые исследования.

Annotation: Using the Sariosiyo, Uzun and Denov districts of the Surkhan oasis as a case, chiefly Sariosiyo, the article offers an ethnological analysis of the ethnic composition, ethnic formation history and economic activities of the Tajik population. Drawing on fieldwork and the scholarly literature, it examines the "mountain" and "lowland" Tajik groups, their clan structure (Zamaki, Malandi, Khufari, Zovkhonachi, Kandukiy, etc.), settlement patterns, and the specific features of irrigated farming, horticulture, livestock breeding and sericulture.

Keywords: Surkhan oasis, Sariosiyo district, Tajiks, ethnic composition, clans, ethnoterritorial settlement, irrigated agriculture, horticulture, fieldwork.

KIRISH

Surxon vohasi aholisining etnik tarkibini aholining etnohududiy joylashuv xususiyatlari o'rganishda etnologik jihatdan tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Ta'kidlash joizki, Surxondaryoda vohasida asosan tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar, ruslar va boshqa millat vakillari yashab kelmoqda[1]. Shulardan o'zbek va tojik xalqlari qadimdan birga yonma-yon yashab, o'troq sug'orma dehqonchilik madaniyati egalari bo'lganlar. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, vohadagi o'zbek va tojik aholisining turmush tarzi, xo'jaligi, urf-odatlari va marosimlarida umumiylik, shu bilan birga o'ziga xos xususiyatlari borligini kuzatish mumkin.

[1] Axmedov S, Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o'rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmi), Termiz, 2023. – B 11.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

Surxon voxasi tabiiy geografik sharoiti va etnoxo‘jalik xususiyatlariga qarab asosan uch qismga: 1) sug’orma dehqonchilik; 2) lalmikor (daryolarning havzalaridagi) yerlar; 3)yaylov yerlarga bo‘lingan. O‘zbekistonning janubiy hududlari K. Zadixina[2], B. Karmisheva[3], N.Kislyakov[4], K. Shoniyozov, H. Ismoilov, O. Ibragimov, I. Jabborov, O. Bo‘riev, G. Zununovalar S.Tursunov tomonidan ham tadqiq etilgan. Surxondaryo ko‘xna va boy tarixga egadir. Voha tojiklari etnogeografik jixatdan asosan vohaning shimoliy qismlarida joylashgan. Ushbu hududlar iqlimi, iqtisodiyoti va etnik o‘ziga xosligi o‘zaro farqlanadi. Tadqiqot uchun Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Uzun, Denov tumanlari tadqiqot ob’ekti sifatida tanlab olindi. Aynan shuning uchun ham tadqiqot ishda ya’ni hozirgi Sariosiyo, Uzun va Denov tumanlarida yashagan, xalqlar boshqa hududlarga nisbatan etnik jihatdan ko‘pligi va ushbu hududdagi aholining etnik tarkibini o’rganishga doir dala tadqiqotlari olib borildi. Qadim zamonlardan beri istiqomat qilib kelayotganliklari sababli tadqiq qilindi[5].

Dala tadqiqoti natijasida birinchi ish Sariosiyo tumanida yashaydigan aholining etnik tarkibini o’rganishdan boshlandi. Sariosiyo tumani tog‘ yon bag‘irlarida joylashgan tuman bo‘lib qishi juda sovuq yoz fasli boshqa tumanlarga nisbatan salqinroq. Tumanning 85% maydoni tog‘lar bilan o‘ralgan. Shimolda Qashqadaryo viloyati bilan Tojikiston respublikasi bilan g‘arbda Denov tumani bilan janubda Uzun tumanlari bilan chegaradosh hisoblanadi. Tumaning maydoni 3.93 ming kv.km aholisining soni 237 966 (2026 yil 1-yanvar holatiga ko’ra) kishi Shahar joylarda 45 213 kishi, qishloq joylarda 192 753 kishi joylashgan. 2025 yil 1 yanvar holatiga o‘zbeklar 58 % ni tashkil etadi tojiklar 39 % ni tashkil etadi[6]. Bundan tashqari rus, afg’on, qozoq, arman millatiga mansub aholi ham bor. Tuman Hisor tog‘ yonbag‘irlarida joylashgan bo‘lib eng baland nuqtasi Xo‘ja-kirshavor dengiz sathidan 4303 metr balandlikda joylashgan[7].

Sariosiyo tumanidagi mahalliy tojik aholisining etnik shakllanish tarixi va xo‘jalik faoliyatiga oid muammolar tahlil etilgan. O‘zbek davlatchilik tarixini xolisona yoritishda tojik xalqi etnografik etnik tarixini o‘rganish va etnologik jihatdan ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Tarixdan ma’lumki, Surxon vohasida qadimdan tojik xalqlari o’zbeklar bilan yonma-yon yashab, o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyati sohiblari bo‘lganlar. Shuningdek, XX asr XXI- asrning birinchi yarmida vohada tojik xalqi tarkibidagi etnik guruhlar yashagan. Umuman olganda, o‘rganilayotgan davrda Sariosiyo tumanidagi tojik aholisini turmush tarzi, xo‘jaligi, urf-odatlari va urug‘- qarindoshchilik an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan turli xil urug’larga bo’linadi. Qadimiy o‘troq aholi, ya’ni urug‘chilik an’analariga ega bo‘lgan o‘troq aholi bo‘lib, ularga Zamaki, Sinachi, Xufari, Malandi, Kishto‘ti, Niluchi, Xurvatani,Zovxonachi, Shoturchi kabi etnik, lokal va ijtimoiy urug’lar mavjud.

Mavjud ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqotlarimizga asoslanib, Sariosiyo tumanidagi tojik aholisining etnik tarkibi quyidagi etnik va etnografik guruhlardan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda tojik aholisining etnik tarkibini muayyan bir tarixiy izchillik asosida tarif berishga harakat qildik. Avvalo vohaning urug‘chilik an’analariga ega bo‘lmagan, etnik va lokal xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan va asosan o‘troq dehqonchilik hududlarida yashagan tojik-maxsim, tojik-eshon kabi etnik va ijtimoiy guruhlar keltirib o‘tildi.

Surxon vohasi tojiklarini turmush sharoiti va geografik nuqtai nazardan joylashuvi ikki guruhga bo‘lingan, ya’ni «tog‘lik tojiklar», balandligi dengiz sathidan 1000 metr va undan yuqorida joylashgan

---

[2] Задыхина К.Л. Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашка-Дарьи в Сурхан-Дарьинской области Узбекской ССР // КИЭ. – Москва, 1962. Том.

[3] Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана // «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVII, 1957; Ўша муаллиф: Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976;

[4] Кисляков Н.А. Сайробские таджики // Советская этнография. №2. –Москва: Наука, 1965;

[5] Axmedov S, Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o‘rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birınchi yarmi), Termiz, 2023. – B 12.

[6] O‘zbekiston Respublikasi: Surxondaryo viloyati statistika markazi.

[7] O‘zbekiston Respublikasi: Surxondaryo viloyati statistika markazi.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

tojik qishloqlari Chosh, Karsh, Desurx, Dibolo, Xo‘jaaspin, Pistubarak, Ko‘lob, Kundaijuvoz, Zevar, Zarchob, Xubon, Xondjiza, Debodom, Hisorak, Nilu va Xufar, Zovxona qishloqlari Sariosiyo tumanida joylashgan tojik qishloqlari hisoblanib eng olis xudud Chosh qishlog‘i tuman markazidan 110-120 km uzoqlikda joylashgan. Tuman markaziga eng yaqini tog‘li Xufar qishlog‘i 30 km masofada joylashgan. Kishtut, Tamshush, Xovat qishloqlarining aholisi 2000-yillar boshida viloyatning Sherobod va Bandixon tumanlariga ko‘chirilgan.

Ikkinchi guruh shahar va tuman markazlariga yaqin hududda joylashgan tojik qishloqlari Kenguzar, Zovxona (aholisi hozirgi kunda ham tog’li hududlarda ham tuman markazariga yaqin joyda istiqomat qilishadi), Tirgaron[8], Podaxana, Dashtikaltoy, Langar, Chorbog‘, Dehqonobod, Yangiobod, Ibrohimobod, Telpakchinor, Xurvatan, Yangihayot, Yangiturmush va Xonim qishloqlari Sariosiyo tumani markaziga yaqin bo‘lgan past tekislikda yoki tekislikda joylashgan tojiklar istiqomat qiladigan qishloqlar hisoblanadi[9].

Dala tadqiqoti natijalariga 1944 yilda tug’ulgan kandukiylar urug’iga mansub Abdulloyev Ibrohim ota so’zlariga ko’ra tog’li hududlarda istiqomat qiluvchi Zovxona (Zovxona deb atalishiga sabab jarlik yoqasidan qishloq tomonga pastlab ketganligi uchun shunday ataladi[10]. “Zov” – yer ostidan tabiiy ravishda suv chiqadigan joy ma’nosini beradi. Hozirgi kunda aholi bu joyni Zarxona deb ham ataydi), aholisining tub ildiziga boradigan bo’lsak Zovxonachilar asli Samarqandning Bog’i baland hududiga borib taqaladi. Buxoro amirligi davrida Surxon vohasi, Zovxona hududiga ko’chirtirilgan. O’sha paytda 5-6 xo’jalikni tashkil etgan. Bu hudud yangi Zovxona va Eski Zovxona joylarga bo’linadi. Aholisi asosan dehqonchilik, bog’dorchilik, chorvachilik bilan shug’ullanib kelgan. XX asrning 50 – 60 yillariga kelib Sharof Rashidov davrida Zovxona aholisi Tirgaron qishlog’iga ko’chirilgan[11]. Tirgaron qishlog’iga ko’chib kelgan birinchi xonadonlar Boboniyozov Bobonazar, Zaripov Meliqul, Azimov Rahmon, Odinayev Jalol, Yusupov Abdumalik va boshqalar ko’chib kelishgan. Tirgaron qishlog’i ikki qismga bo’linadi: Tirgaron bolo va Tirgaron past hududlariga, bu qishloqda asosan zovxonachilar, kandukilar, malandilar, xufarilar, zamakilar istiqomat qilishadi.

Tirgaron hududiga nafaqat Zovxona aholisi bulardan tashqari malandi, xufari, shoturchi, kundakiylar ham ko’chib kelishgan, Kandukiy va Zovxonachilar azaldan bir joyda yashab mehnat qilib kelishgan. Bu ikki urug’ o’rtasida nikoh almashuvlari ham bo’lgan. Hozirgi kunda Tog’li hududda kandukilar qolmagan. Ularning ko’pchilik qismi tekislik joylarda tuman markazi hududi yaqinlariga ko’chib kelishgan. Tirgaron hududida istiqomat qiluvchi aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik, pilla boqish ishlari bilan shug’ullangan. Bundan tashqari Sholi ekish ham aholining asosiy mashg’ulotlaridan biri hisoblangan. Biz bilamizki, Mazkur mintaqa dehqonchiligi milodgacha bo‘lgan ikki ming yillikning oxirgi choraklaridan boshlangan bo‘lib, uch ming yillik tarixga ega. Bu fikrga voha hududidan topib o‘rganilgan arxeologik materiallar hamda o‘lkaning qadimgi davriga oid yozma ma’lumotlar ham asos bo‘ladi. Arxeolog olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra Surxon vohasida bu jarayon miloddan oldingi II ming yillikning o‘rtalaridan boshlangan[12]. Surxon vohasi sug‘orma dehqonchiligining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq masalalar bir qator arxeolog olimlar xususan, Sh Rtveladze E.V Annaev, A.Asqarov, Sh.Shaydullaev. asarlarida ko‘rsatib o‘tilgan. Surxon vohasi dehqonchilik tarixiga oid ma’lumotlar qadimgi yozma manbalardan tortib, arab va forsiyzabon tarixchilarning asarlarida, xitoy manbalarida, rusiyzabon sayyohlar, geograflar va harbiylar kundaliklarida hamda o‘zbek etnograf-olimlari tadqiqotlarida yoritilgan. Surxon vohasi dehqonchiligining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari tadqiq etildi. Albatta, ular birinchi navbatda rus tadqiqotchilari orasida chin ma’nodagi ilm-fan fidoyilari Potapov L.P, Karmisheva B.X., Kislyakov N.A, Oshanin L.V kabi izlanuvchilar Surxon vohasi tarixi hamda

[8] Sariosiyo tumani hududida joylashgan tog’li hudud nomi.

[9] Axmedov S, Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o‘rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birınchi yarmi), Termiz, 2023. – B 16.

[10] Dala yozuvlari, 2026 yil, Sariosiyo tumani, Tirgaron qishlog’i.

[11] Dala yozuvlari, 2026 yil, Sariosiyo tumani, Tirgaron qishlog’i, Bog’i obod mahallasi.

[12] Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавналар. –Тошкент, 1997. –С. 77.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

etnografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Bular haqida mazkur ishning yuqori qismlarida batafsil to'xtalgan edik. Biz uchun e'tiborlisi shuki, yuqorida qayd etilgan olimlar va tadqiqotchilarning ishlaridan vohada istiqomat qiluvchi turli xalqlarning etnik tarkibi, xo'jaligi bilan birga dehqonchilik mashg'ulotlariga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan. Vohaning tog'oldi va tog'ning quyi qismlarida sug'oriladigan yerlar kamligi va lalmi ekinlar uchun ham noqulayligi tufayli bu yerlarda yashovchi o'troq aholi bog'dorchilikka ixtisoslashgan. Surxon vohasining iqlimi bog'dorchilik uchun nihoyatda qulayligi tojiklar isteqomat qilinadigan xududlarda olma, uzum, gilos, nok va anjirdan mo'l hosil olishlari tadqiqot jarayonlarida amin bo'ldik. To'palang daryosining suvidan ham ekin maydonlarini sug'orishda foydalanganlar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xazarbog' kanali langar, chorbog', sarijo' va tirgaron qishloqlarida yashovchi tojiklarning sug'orishishlarida katta ahamiyat kasb etgan.

Xulosa Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Sariosiyo tumanidagi tojik aholisi o'zbeklar bilan qadimdan yonma-yon yashab, o'troq sug'orma dehqonchilik madaniyatning tashuvchisi bo'lib kelgan. Tuman aholisining asosiy qismini o'zbeklar va tojiklar tashkil etadi. Tojik qishloqlari geografik joylashuvi va turmush sharoitiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: dengiz sathidan 1000 metr va undan baland tog'li qishloqlar hamda tuman markaziga yaqin tekislikdagi qishloqlar. Aholining etnik tarkibi urug'-qarindoshlik asosida shakllangan bo'lib, ayrim guruhlar (masalan zovxonachilar) XX asrning 50-60 yillarida tog' hududidan Tirgaron qishlog'iga ko'chirilgan. Tabiiy sharoit xo'jalik ixtisoslashuvini belgilagan: tog'oldi hududlarda bog'dorchilik, boshqa joylarda dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik va sholikorlik rivojlangan, sug'orishda To'palang daryosi va Xazarbog' kanali muhim o'rin tutgan. Mazkur ma'lumotlar voha tojiklarining etnik tarixi va madaniyatini o'rganish hamda o'zbek – tojik madaniy umumiyligi va o'ziga xosligini aniqlash uchun ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov S, Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o'rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmi), Termiz, 2023. – B 16.
2. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. –Тошкент, 1997. –С. 77.
3. Dala yozuvlari, 2026 yil, Sariosiyo tumani, Tirgaron qishlog'i, Bog'i obod mahallasi.
4. Задыхина К.Л. Некоторые вопросы изучения этнического состава населения бассейна Кашка-Дарьи в Сурхан-Дарьинской области Узбекской ССР // КИЭ. – Москва, 1962. Том.
5. Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана // «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVII, 1957; Ўша муаллиф: Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976;
6. Кисляков Н.А. Сайробские таджики // Советская этнография. №2. –Москва: Наука, 1965;
7. O'zbekiston Respublikasi: Surxondaryo viloyati statistika markazi.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.